# MAKTABGACHA TA'LIM SOHASINI MOLIYALASHTIRISH MOLIYALASHTIRISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH

**Jo'rayev Anvar Ibrohim o'g'li**

**Abdinazarov B.K**
*BTOM direktorining birinchi o'rinbosari, i.f.n*

**Annotatsiya:** *Maktabgacha ta'lim sohasi, jamiyatning eng muhim bo'limlari orasida hisoblanadi. Bu soha, yangi talabalar va o'quvchilar o'rganish uchun muhim bo'lib, moliyalashtirish jarayonlarini to'g'ri boshqarish zarur. Bu maqolada, maktabgacha ta'lim sohasini moliyalashtirish jarayonlarini raqamlashtirishni o'rganishni ko'rib chiqamiz.*

**Kalit so'zlar:** *Maktabgacha ta'lim, davlat budjeti, moliyalashtirish, raqamlashtirish jarayonlari, budjet, ish haqi, o'quv metodika.*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

Maktabgacha ta'lim tizimini yaxlit uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligining O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi (keyingi o'rinlarda — Vazirlik deb ataladi) negizida quyidagilarni tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin:

a) Axborot va pedagogika texnologiyalari innovatsion markazini (keyingi o'rinlarda — Markaz) davlat muassasasi shaklida tashkil etish hamda unga quyidagi vazifalarni yuklash:

ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogika va axborot texnologiyalarini joriy etish, Maktabgacha ta'limni boshqarish axborot tizimining joriy etilishini ta'minlash;

ta'lim-tarbiya jarayonida, maktabgacha tarbiya tizimining pedagog va rahbar xodimlari tarkibini o'qitish jarayonida foydalanish hamda turli telekommunikatsiya kanallari orqali tarqatish uchun media-kontent tayyorlash va ishlab chiqarish;

maktabgacha ta’lim muassasalari uchun o‘quv-metodik, didaktik materiallarni tayyorlash va ishlab chiqarish;

maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish;

maktabgacha ta’limni boshqarishning zamonaviy standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;

maktabgacha ta’lim tizimiga joriy etilayotgan ta’lim usullari va dasturlarini tahlil qilish va samaradorligini baholash;

Keyingi tahrirga qarang.

b) Ixtisoslashtirilgan loyiha-izlanish institutini (keyingi o‘rinlarda — Institut) davlat unitar korxonasi shaklida tashkil etish hamda Institutni maktabgacha ta’lim tizimi buyurtmachilari bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq investitsiya loyihalari bo‘yicha, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik loyihalari bo‘yicha loyihaoldi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqishda bosh loyiha tashkiloti sifatida belgilash;

v) Infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha injiniring kompaniyasini (keyingi o‘rinlarda — Injiniring kompaniyasi) davlat unitar korxonasi shaklida tashkil etish hamda Injiniring kompaniyasiga maktabgacha ta’lim tizimi obyektlarini qurish, kapital ta’mirlash va jihozlash bo‘yicha buyurtmachi funksiyalarini yuklash hamda kompaniya xizmatlari bilan bog‘liq xarajatlarni davlat maktabgacha ta’lim muassasalarini qurish, kapital ta’mirlash va rekonstruksiya qilish qiymatiga kiritish;

Keyingi tahrirga qarang.

g) yuridik shaxs tashkil qilmasdan Maktabgacha ta’limni rivojlantirish jamg‘armasini (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) tashkil etish.

Quyidagilar Jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish manbalari etib belgilansin:

Respublika budjeti mablag‘lari, shu jumladan, 2018-2019-yillarga mo‘ljallangan, har chorakda ajratilib, har yili budjet qoidalariga muvofiq indeksatsiyalanadigan jami 100 milliard so‘m miqdorida;

davlat maktabgacha ta’lim muassasalarining foydalanilmayotgan ko‘chmas mulkini sotishdan tushgan mablag‘lar — 100 foiz miqdorida;

Keyingi tahrirga qarang.

Vazirlik tuzilmasiga kirgan tashkilotlar va muassasalar faoliyatini tekshirish natijalari bo‘yicha Vazirlik ichki audit xizmatlari tomonidan aniqlangan hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti, maqsadli jamg‘armalari va budjetdan tashqari jamg‘armalari daromadiga undirilgan budjet mablag‘larining noqonuniy xarajatlari, o‘g‘irlik, kamomad summalarining 50 foizi;

Jamg‘armaning vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larini joylashtirishdan olingan daromadlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining xayriya mablag‘lari;

xalqaro moliya tashkilotlari, xorijiy davlatlar va boshqa donorlar kreditlari (qarzi), grantlari va texnik ko‘maklashish mablag‘lari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Belgilab qo‘yilsinki:

a) Jamg‘arma mablag‘lari:

maktabgacha ta’lim muassasalarini belgilangan tartibda maqsadli qurilishlar ro‘yxatiga kiritib, ularning tarmog‘ini kengaytirishga;

Keyingi tahrirga qarang.

maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarini moddiy rag‘batlantirishga;

Keyingi tahrirga qarang.

yuqori malakali mutaxassislar, shu jumladan, xorijiy mutaxassislarni, shuningdek, xorijda faoliyat yuritayotgan vatandoshlarimizni fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida Vazirlikka ishlash uchun jalb qilishga;

Vazirlikka yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish doirasida davlat organlari va tashkilotlari, loyiha institutlari, ilmiy va oliy ta’lim muassasalari, yetakchi xalqaro va xorijiy tashkilotlar mutaxassislarini, shuningdek, ekspertlarni maslahatchilar sifatida jalb qilishga;

Vazirlik xodimlarini, jumladan, xorijda o‘qitish, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilishga;

Vazirlik, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, viloyat maktabgacha ta’lim boshqarmalari va Toshkent shahar maktabgacha ta’lim bosh boshqarmasi, maktabgacha ta’lim tuman (shahar) bo‘limlari va davlat maktabgacha ta’lim muassasalari binolarini jihozlash va ta’mirlashga;

Keyingi tahrirga qarang.

ta’lim-tarbiya jarayoniga ilg‘or pedagogika va axborot texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, Vazirlik faoliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan boshqa tadbirlarga sarflanadi;

b) Vazirlik O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi bilan kelishgan holda Jamg‘arma tomonidan xorijiy davlatlar va hukumatlardan, xalqaro va xorijiy hukumat va nohukumat tashkilotlaridan, chet ellik fuqarolardan beg‘araz yordam olinishi haqida qarorlar qabul qiladi.

Keyingi tahrirga qarang.

Keyingi tahrirga qarang.

2. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining tashkiliy tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi markaziy apparatining yangilangan tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Vazirlik tizimi boshqaruv xodimlarining cheklangan soni 2324 nafar, shu jumladan, Vazirlik markaziy apparati xodimlari 138 nafar, shuningdek, metodistlar 471 nafar etib belgilansin.

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vaziriga:

Vazirlik markaziy apparatining tasdiqlangan tuzilmasiga boshqaruv xodimlarining belgilangan umumiy soni chegarasida o‘zgartirishlar kiritish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, viloyat maktabgacha ta’lim boshqarmalari va Toshkent shahar maktabgacha ta’lim bosh boshqarmasi, maktabgacha ta’lim tuman (shahar) bo‘limlari, boshqa idoraviy mansub tashkilotlarning nizomlari va tuzilmalarini, shuningdek, ularning boshqaruv xodimlarining cheklangan sonini tasdiqlash huquqlari berilsin.

3. Belgilansinki:

a) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, viloyat va Toshkent shahar maktabgacha ta’lim boshqarmalari, maktabgacha ta’lim tuman (shahar) bo‘limlari rahbarlari O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vaziri tomonidan joylardagi davlat hokimiyati organlari bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi;

b) 2019-yil 1-yanvardan:

Oldingi tahrirga qarang.

(3-band “b” kichik bandining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-dekabrdagi PF-5597-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.12.2018-y., 06/18/5597/2300-son)

maktabgacha ta’lim bilan bog‘liq yo‘nalish bo‘yicha faoliyatga litsenziya berish uchun majburiy litsenziyaviy talab maktabgacha ta’lim muassasasi, uning tarbiyalanuvchilari, pedagoglari va ta’lim-tarbiya jarayoni to‘g‘risidagi ishonchli axborotni Maktabgacha ta’limni boshqarishning axborot tizimiga kiritishdir;

Keyingi tahrirga qarang.

nodavlat maktabgacha ta’lim muassasasi litsenziyasini to‘xtatish yoki bekor qilish uchun Maktabgacha ta’limni boshqarishning axborot tizimida maktabgacha ta’lim muassasasi, uning tarbiyalanuvchilari, pedagoglari va ta’lim-tarbiya jarayoni to‘g‘risidagi ishonchli axborotning yo‘qligi asos bo‘ladi.

Keyingi tahrirga qarang.

4. 2018-2019-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari dasturi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Vazirlik va idoralarning rahbarlari ushbu Dasturda nazarda tutilgan tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun shaxsiy javobgar ekanligi ko‘rsatilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi:

O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasidan Markazga beg‘arazlik asosida bosqichma-bosqich 10 million AQSh dollari ekvivalentida, shu jumladan, 2018-yilda Markazni joylashtirish, jihozlash va saqlash bilan bog‘liq tashkiliy-amaliy tadbirlarni moliyalashtirish uchun 2 million AQSh dollari ekvivalentida mablag‘ ajratsin;

Keyingi tahrirga qarang.

Vazirlik bilan birgalikda belgilangan tartibda maktabgacha ta’lim muassasalarining O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan keng polosali internet tarmog‘idan foydalanishini ta’minlasin.

Keyingi tahrirga qarang.

6. Quyidagilar:

xorijiy sheriklar bilan birgalikda amalga oshiriladigan loyihalar doirasida ilg‘or pedagogik texnologiyalar va innovatsion o‘qitish usullarini joriy etish hamda maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil qilish, shu jumladan, maktabgacha ta’lim sohasida korxonalar tashkil qilish uchun olib kiriladigan tovarlar;

Keyingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, Markaz, Injiniring kompaniyasi va Institut tomonidan olib kiriladigan maxsus texnika, uskunalar, shu jumladan, asboblar, ehtiyot va butlovchi qismlar, texnik hujjatlar va dasturiy mahsulotlar belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxatlar bo‘yicha 2022-yilning 1-yanvarigacha bojxona to‘lovlaridan (bojxona yig‘imlaridan tashqari) ozod etilsin.

Belgilab qo‘yilsinki, yuqorida ko‘rsatilgan tovarlardan maqsadsiz foydalanilgan taqdirda bojxona imtiyozlari berilishi munosabati bilan to‘lanmagan bojxona to‘lovlari summasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti foydasiga undiriladi hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda moliyaviy sanksiyalar qo‘llaniladi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi va Moliya vazirligi:

2019-yil 1-yanvardan Toshkent shahrining uchta tumanida jon boshiga normativ moliyalashtirishning sinov rejimida joriy etilishini;

2019-yil 15-iyulgacha bo‘lgan muddatda sinov tariqasidagi jon boshiga normativ moliyalashtirish natijalarining batafsil tahlil qilinishini;

2019-yil 1-avgustgacha bo‘lgan muddatda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga o‘tkazilgan tahlil natijalarini hisobga olgan holda maktabgacha ta’lim tizimida moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritilishini ta’minlasin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, Vazirlik hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda 2018-yil 1-noyabrgacha bo‘lgan muddatda qishloq joylarda bir nechta ko‘p qavatli turarjoy uylari yoki uylar guruhlaridan iborat yangi majmualarni loyihalashtirish normativlari va tartibini ishlab chiqsin hamda ko‘p qavatli turarjoy uylarining birinchi qavatlarida yoki alohida bino ko‘rinishida maktabgacha ta’lim muassasasi bo‘lishini nazarda tutsin.

Keyingi tahrirga qarang.

Keyingi tahrirga qarang.

9. Belgilansinki:

qishloq joylarda bir nechta koʻp qavatli turarjoy uylari yoki uylar guruhlaridan iborat yangi qurilayotgan majmualardagi maktabgacha taʼlim muassasasining eng kam quvvati 50 oʻrindan kam boʻlmasligi kerak;

qurilgan maktabgacha taʼlim muassasalari binolari yoki xonalari davlat yoki nodavlat taʼlim muassasalarini, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosida, turarjoy mulkdorlarining qaroriga muvofiq tashkil qilish uchun foydalanilishi mumkin;

davlat maktabgacha taʼlim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish, tugatish, ularga tegishli yer uchastkalari va koʻchmas mulkni olib qoʻyish faqat Vazirlik bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi;

davlat maktabgacha taʼlim muassasalarini qayta tashkil etish yoki tugatish, ularga tegishli yer uchastkalari va koʻchmas mulkni olib qoʻyish haqida Vazirlik bilan kelishmagan holda qaror qabul qilgan mansabdor shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

10. Uy-joy kommunal xizmat koʻrsatish vazirligi hamda Vazirlik Iqtisodiyot vazirligi, Investitsiyalar boʻyicha davlat qoʻmitasi, “Oʻzbekenergo” AJ va “Oʻztransgaz” AJ bilan birgalikda 2019-yil 1-martgacha boʻlgan muddatda 2025-yilgacha maktabgacha taʼlim muassasalarini ichimlik suvi, isitish tizimi, elektr energiyasi va tabiiy gaz bilan taʼminlashni tubdan yaxshilash dasturi loyihasini ishlab chiqsin hamda tasdiqlash uchun Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

Keyingi tahrirga qarang.

11. “UZINFOCOM” davlat axborot tizimlarini yaratish va qoʻllab-quvvatlash boʻyicha yagona integrator” MChJ hamda Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat personallashtirish markazi bilan birgalikda 2019-yil 1-yanvargacha:

bolani davlat maktabgacha taʼlim muassasasiga qabul qilish boʻyicha davlat xizmatidan foydalanganda;

maktabgacha taʼlim muassasalarida taʼlim olayotgan bolalar uchun jismoniy shaxs shaxsiy identifikatsiya raqamini berish boʻyicha xizmatni joriy etsin.

12. Vazirlik:

a) oʻn kunlik muddatda Davlat maktabgacha taʼlim muassasalarining Vasiylik kengashlarini tugatsin hamda Davlat maktabgacha taʼlim muassasalarining Kuzatuv kengashlarini tuzsin;

b) bir oylik muddatda:

davlat maktabgacha taʼlim muassasalari tomonidan dam olish kunlarida va ish kuni tugagandan keyin belgilangan dasturdan tashqari faoliyat ixtisosligi boʻyicha qoʻshimcha pullik xizmatlar koʻrsatish (bolalarni parvarishlash, qarab turish, oʻqitish boʻyicha va boshqalar) tartibini tasdiqlasin;

Maktabgacha taʼlim muassasasining kuzatuv kengashi haqida nizomni tasdiqlasin va unda, shu jumladan, Kuzatuv kengashiga Vazirlikning hududiy

bo'linmalari tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar tarkibidan maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarini saylash huquqi berilishi nazarda tutilsin.

13. Belgilansinki:

a) Vazirlik va uning hududiy bo'linmalarining Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armalari mablag'lari, tovarlar, ishlar, xizmatlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bo'yicha umumiy xarajatlar (homiylik, beg'araz yordam summalaridan tashqari) qoplangandan keyin moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish va moddiy rag'batlantirish bo'yicha tadbirlar uchun foydalaniladi;

Keyingi tahrirga qarang.

b) davlat maktabgacha ta'lim muassasasi hisobvarag'iga qo'shimcha pullik xizmatlar ko'rsatishdan tushgan mablag'lar qo'shimcha pullik xizmatlar ko'rsatish bo'yicha umumiy xarajatlar qoplangandan keyin:

80 foizi — maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlarini moddiy rag'batlantirish hamda maktabgacha ta'lim muassasasi moddiy-texnika bazasini yaxshilashga (ta'mirlash, inventar va uskunalar, o'quv-uslubiy materiallar sotib olish va boshqalar);

10 foizi — Jamg'armaga;

5 foizi — tegishli tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limining Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasiga;

5 foizi — Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalari va Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasining Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasiga yo'naltiriladi.

14. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirishni birgalikda moliyalashtirish, davlat maktabgacha ta'lim muassasalarini jihozlash va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shuningdek, mazkur qaror bilan tasdiqlanadigan 2018-2019-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari dasturini birgalikda moliyalashtirish uchun donor mamlakatlar va xalqaro moliyaviy institutlar mablag'larini (kreditlar, qarzlar, grantlar) davlat-xususiy sheriklik asosida jalb qilishni ta'minlasin.

15. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Bosh prokuratura, Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tekshirish tartibini belgilaydigan Hukumat qarorini, bunday vakolatlar berilgan organlarning qat'iy ro'yxatini, tekshiruvlarni tayinlash va o'tkazishning huquqiy asoslarini ko'rsatgan holda ishlab chiqsin va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

Keyingi tahrirga qarang.

16. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini noqonuniy tekshirishlarga yo'l qo'yilmasligi ustidan

nazoratni kuchaytirsin hamda aybdor shaxslarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq qat'iy javobgarlik choralarini qo'llasin.

Nazorat qiluvchi organlar joylardagi davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tekshirish chog'ida aniqlangan qoidabuzarliklarning bartaraf etilishi va keyinchalik yo'l qo'yilmasligiga har tomonlama yordam ko'rsatsin.

17. Moliya vazirligi mazkur qarorning amalga oshirilishi uchun zarur mablag'larni 2018-yilda "Ta'lim" tarmog'i bo'yicha Davlat budjeti parametrlari chegarasida ajratsin, 2019-yildan boshlab esa O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining parametrlarida har yili nazarda tutsin.

18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda:

Markaz, Institut va Injiniring kompaniyasining faoliyatini tashkil qilish bo'yicha, shu jumladan, ularni moliyalashtirish manbalarini nazarda tutgan holda;

Jamg'armaning faoliyatini tashkil qilish bo'yicha qaror qabul qilsin hamda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirini Jamg'arma mablag'larini taqsimlovchi etib belgilashni nazarda tutsin.

19. Markaz, Institut va Injiniring kompaniyasini Toshkent shahar, Yashnobod tumani, Oqdaryo ko'chasi, 122-uyda joylashgan Yashnobod kompyuter texnologiyalari kasb-hunar kolleji binolarida joylashtirsin.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlari 4-ilovaga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga 5-ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

22. Vazirlik boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

23. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A. Abduvoxitov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining birinchi o'rinbosari B.M. Mavlonov va O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vaziri A.V. Shin zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh, 2018-yil 30-sentabr, PQ-3955-son

Maktabgacha ta'lim sohasidagi moliyalashtirish jarayonlari o'zgaruvchan va ko'plab faktorlar orqali tuziladi. Bunday jarayonlarni raqamlashtirishda quyidagi bosqichlar ko'rsatiladi:

O'quvchilar sonini o'rganish: Maktabgacha ta'limning moliyalashtirish jarayonlari, o'quvchilar soni bilan boshlanadi. Har bir davlatda o'quvchilar soni, budjet mablag'lar, o'quv dasturlari va kadrlar uchun moliyalashtirishni o'z ichiga oladi.

Budjet mablag'lari: O'quvchilar soni, budjet mablag'larini belgilash va ishlatishda katta ro'lyangacha ega. Qancha ko'p o'quvchilar bo'lsa, shuningdek, mablag'lar qo'shimcha resurslar talab qiladi. Bu mablag'lar o'quvchilar uchun ta'lim vositalarini, o'qituvchilar maoshlarini, o'quv jarayonlarini yaxshilash va yangi texnologiyalarni kiriting uchun ishlatiladi.

O'quv dasturlari va muassasalar strukturasi: O'quvchilar soni, o'quv dasturlari va muassasalar strukturasi ustida to'liq ta'sir ko'rsatadi. Ko'pgina o'quvchilar bo'lsa, qo'shimcha dasturlar, o'quv metodikalari, va o'quv jarayonlarini samarali boshqarishning zarurati hosil bo'ladi.

Kadrlar va o'qituvchilar: O'quvchilar soni, kadrlar va o'qituvchilar uchun moliyalashtirishni ta'minlashda muhim bo'ladi. Ko'pgina o'quvchilar bo'lsa, katta vaqt sarflanadi va kadrlarning sifatini oshirish uchun mablag'lar ajratilishi kerak bo'ladi.

Yangi talabalarni jalb qilish: O'quvchilar sonini o'rganish, yangi talabalarni jalb qilish va o'qituvchilarni jalb qilish uchun moliyalashtirishni o'rganishda muhim bo'ladi. Ko'pgina o'quvchilar bo'lsa, yangi talabalarni jalb qilish uchun marketing va ma'lumotlar almashish kampaniyalari uchun katta mablag'lar sarflanadi.

Maktabning darajasi: Ko'pgina o'quvchilar bo'lsa, maktabning o'quvchilar va o'qituvchilarning oson moliyalashtirishni ta'minlash uchun tizimi ham osonroq bo'ladi. Bu esa, mablag'lar va muammolarini boshqarishda samarali vaqt va mablag'ni tejash imkoniyatlarini beradi.

O'quvchilar sonini o'rganish, maktabgacha ta'limning moliyalashtirish jarayonlarini samarali boshqarish uchun muhimdir. Bu, mablag'lar ishlatilishini optimallashtirish, yangi talabalar va o'quvchilar uchun yaxshi o'quv muhitini yaratish va maktabning o'quv jarayonlarini sifatli o'rganish uchun yordam beradi.

O'quvchilarning darajasi va talablari: O'quvchilar darajasini oshirish va talablari tekshirish jarayonlari moliyalashtirishda muhim rol o'ynaydi. Bu raqamlash, o'quvchilarning muvaffaqiyat darajasini oshirish, taklif etilayotgan mablag'larning efektivligini ko'rsatadi.

Daraja va muvaffaqiyat ko'rsatkichlari

Akademik daraja: O'quvchilarning o'zlarining akademik darajalari, baholar, o'quv yoki fan sohasidagi muvaffaqiyatlari, maktabning moliyalashtirishni qanday o'rganishini ko'rsatadi. Bu ma'lumotlar, o'quv jarayonlarini sifatli o'rganish, o'quvchilarni takomillashtirish va ilg'or o'qish yo'nalishlarini belgilashda yordam beradi.

Muvofiqlik darajasi: O'quvchilarning muvofiqlik darajasi, sinovlarda yoki imtihonlarda ko'rsatgan natijalari, o'zlarining malakalari va rivojlari haqida ma'lumot beradi. bu turiy ma'lumotlar, o'quvchilarning individual rivojlanishini va o'quvning natijalarini ta'lim muvaffaqiyatini baholashda yordam beradi.

Talablarning tekshirilishi

Ta'lim yo'nalishlari: O'quvchilarning o'qish yo'nalishlari, o'quv dasturlariga va maktabning maqsadlari va qo'llab-quvvatlari bilan mos kelishi muhimdir. Bu turiy ma'lumotlar, o'quvchilarning o'qish yo'nalishlarini o'rganish, ularni takomillashtirish va qiziqishlariga muvofiq ta'lim berishda yordam beradi.

Texnologiyalar va resurslar: O'quvchilar uchun ma'lumotlar texnologiyalari va resurslar, ta'lim jarayonlarini samarali va qiziqarli qilishda katta ro'lyangacha ega. Bu, o'quvchilarning ta'lim vositalarini va texnologiyalarini ishlatish ko'nikmalarini oshirish va ularning o'zlashtirish va ilg'or qiziqishlarini rivojlantirish uchun zarurdir.

Ko'nikmalar va ijtimoiy rivojlanish: O'quvchilar ijtimoiy talablarni qanoatlantirish, jamoatga foydali bo'lish, shaxsiy rivojlanish va tanqidiy fikr ko'nikmasini oshirish uchun zarurdir. Bu turiy ma'lumotlar, maktabning ijtimoiy, ma'rifiy, va madaniy moliyalashtirish strategiyasini belgilashda muhim bo'ladi.

O'quvchilarning darajasi va talablari, maktabgacha ta'lim sohasidagi moliyalashtirish jarayonlarini samarali boshqarish uchun muhimdir. Bu jarayonlarni raqamlashtirish, o'quvchilarning o'zlarining rivojlanishini ta'minlash, o'quv jarayonlarini samarali boshqarish va moliyalashtirish uchun muhim bo'lgan mablag'larni samarali ishlatish uchun yordam beradi.

Kadrlar va o'qituvchilar: Maktabgacha ta'limning sifatini oshirish va moliyalashtirishni ta'minlash uchun yuqori sifatli kadrlar kerak. Kadrlar uchun moliyalashtirish raqamlash jarayoni, ularning maoshlari, tajribalari, va professional rivojlanishini o'z ichiga oladi.

Maoshlar va ish haqi

O'qituvchilarning maoshlari, ularning motivatsiyasini oshirish va yuqori sifatli kadrlarni jalb qilishda juda muhimdir. Maoshlar, ularning vazifalarini yaxshi bajarish, ta'limning sifatini oshirish va o'quvchilarga yuqori sifatli ta'lim berish uchun motivatsiya ko'rsatishda o'z vazifasini bajaradi.

Moliyalashtirish raqamlash jarayonida, o'qituvchilar maoshlari har bir o'qituvchi uchun ma'lum miqdorda hisoblanadi. Bu, ularning motivatsiyasini oshirish va sifatli ta'limning ta'minlanishiga qaratilgan muhim qadamdir.

Tajribalar va kasbiy rivojlanish

O'qituvchilar va kadrlar uchun tajribalar va professional rivojlanish, ularning o'zlarini yangilash va so'nggi ma'lumotlarni o'rganishda muhimdir. Bu, ta'lim jarayonlarini yangilash, yangi texnologiyalarni o'rgatish va o'quvchilarga yuqori sifatli ta'lim ta'minlashga qaratilgan muhim qadamdir.

Moliyalashtirish raqamlash jarayonida, o'qituvchilar va kadrlarning tajribalarini, professional rivojlanishlarini va yangi bilimlarni o'rganish

imkoniyatlarini belgilash uchun analiz va tahlil qilinishi kerak. Bu, ularning ishlarini samarali boshqarish va ta'limning sifatini oshirish uchun zarurdir.

Ta'lim va tashkilotning maqsadi

O'qituvchilar va kadrlar uchun ta'lim va tashkilotning maqsadi va qo'llab-quvvatlari ko'rsatkich muhimdir. Bu, ularning motivatsiyasini oshirish, qo'shimcha ma'lumotlar olish, va tashkilotning moliyalashtirishini boshqarish uchun zarur bo'ladi.

Moliyalashtirish raqamlash jarayonida, o'qituvchilar va kadrlar ta'lim va tashkilotning maqsadlarini tushunish va ularga qarshi turish uchun kerakli resurslarni ta'minlash uchun ma'lumotlar to'plamalari va analizlar muhimdir.

Kadrlar va o'qituvchilar moliyalashtirish raqamlash jarayonida, ularning maoshlari, tajribalari va professional rivojlanishlarini muvaffaqiyatli boshqarish uchun zarurdir. Bu, o'qituvchilar va kadrlar motivatsiyasini oshirish, ta'limning sifatini oshirish va tashkilotning moliyalashtirishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Tashkilot strukturasi va rivojlanish: Maktabgacha ta'lim sohasidagi tashkilotlar, ularning moliyalashtirishini hisobga olish jarayonida muhimdir. Tashkilot strukturasi, budjet mablag'larining yetarli va samarali ishlatilishini ta'minlashga yordam beradi.

Tashkilot Strukturasi va Maqsadlar

Tashkilot strukturasi, maktabning moliyalashtirishni o'rganish va ta'minlash jarayonlarida muhim ahamiyatga ega. Bu struktura, qo'shimcha resurslar ishlatishni va budjet mablag'larini yetarli va samarali ishlatishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Maqsadlar va vazifalar, tashkilotning moliyalashtirish strategiyasini belgilashda katta o'rin egadi. Bu, mablag'lar ishlatishni optimallashtirish, o'qituvchilar va kadrlar motivatsiyasini oshirish, va ta'limning sifatini oshirish uchun yuqori sifatli va ishonchli struktura yaratish uchun zarurdir.

Budjet mablag'larining ishlatilishi

Tashkilot strukturasi, budjet mablag'larining ishlatilishini samarali va effektivligini ta'minlash uchun zarurdir. Bu, mablag'lar ishlatilishini boshqarish, moliyalashtirishni o'rganish va strategiyalarini rivojlantirishda muhim ro'lni o'ynaydi.

Struktura, budjet mablag'larini o'quv jarayonlarini o'zlashtirish, ta'lim vositalarini yangilash, kadrlarni jalb qilish va motivatsiyasini oshirish, yangi texnologiyalarni kiriting va ta'limning sifatini oshirish uchun ishlatishni rivojlantirish uchun kerakli bo'lgan muhitni ta'minlashga yordam beradi.

Rivojlanish va Innovatsiyalar

Tashkilot strukturasi, maktabning rivojlanishini oshirish va yangiliklarni kiritish uchun muhimdir. Bu, innovatsion texnologiyalarni, o'qish metodi va usullarini

yangilash, o'quvchilarni ilg'or o'qitishga qaratish va ta'limning sifatini oshirish uchun zarur bo'lgan muhitni yaratishga yordam beradi.

Innovatsion strategiyalar va rivojlanish, tashkilotning moliyalashtirishni o'rganish va qo'llab-quvvatlashda muhim ro'lni o'ynaydi. Bu, yangiliklarni kiritish va yangi texnologiyalarni ishlatishni o'rganish, ta'limning sifatini oshirish va o'quvchilarni muvaffaqiyatli boshqarishga imkoniyat yaratish uchun muhimdir.

Tashkilot strukturasi va rivojlanishi, maktabgacha ta'lim sohasidagi moliyalashtirish jarayonlarini samarali boshqarishda katta ahamiyatga ega. Bu jarayonlar, budjet mablag'larining ishlatilishini optimallashtirish, innovatsion texnologiyalarni kiritish, ta'limning sifatini oshirish va ta'lim muhitini yangilashda yordam beradi.

Raqamlashtirish jarayonlari va xususiyatlari

Maktabgacha ta'lim sohasidagi moliyalashtirish jarayonlarini raqamlashtirishning keyinchalik yordamchi xususiyatlari:

Moliyaviy ma'lumotlar tizimi: Raqamlashtirishda muhim bo'lgan moliyaviy ma'lumotlar tizimi, ma'lumotlar bazasi yaratish va uning muvaffaqiyatini ta'minlashda yordam beradi.

Moliyalashtirish analitikasi: Moliyalashtirish jarayonlarini tahlil qilish va o'rganish, tashkilotning moliyalashtirish strategiyasini yaxshilashda va moliyalashtirishni optimallashtirishda muhimdir.

Tekshiruv va baholash: Raqamlashtirish jarayonlari moliyalashtirishning nazorat qilish va baholashni o'z ichiga oladi. Bu qatlam, taklif etilgan moliyalashtirish jarayonlarining o'zlashtirishini va keyinchalik boshqarishni ta'minlashda muhimdir.

Teknologiyalar va infrastruktura: Yangi texnologiyalar va ma'lumotlar texnologiyalari, maktabgacha ta'lim sohasidagi moliyalashtirishni kuchaytirish uchun muhimdir. O'quv jarayonlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlar tizimlarini o'zlashtirish, o'quvchilar va o'qituvchilar uchun yangi ta'lim vositalarini kiriting, va ta'lim jarayonlarini samarali boshqarish imkoniyatlarini yaratishda muhimdir.

Maktabgacha ta'lim sohasini moliyalashtirish jarayonlarini raqamlashtirish, tashkilotlar uchun samarali moliyalashtirish strategiyasini rivojlantirishda muhim bo'lib, yangi talabalar va o'quvchilar uchun yaxshi o'quv muhitini ta'minlashda yordam beradi. Bu jarayonlarni tahlil qilish, moliyalashtirish jarayonlarini optimallashtirish va budjet mablag'larini samarali ishlatishga yordam beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA Toshkent sh, 2018-yil 30-sentabr, PQ-3955-son

2. https://lex.uz/uz/docs/-3923110?ONDATE=13.12.2018
3. https://parl.uz/articles/society/ta_limda_raqamlashtirish_/